

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING ROLI

*Xalikova Lola Nazarovna*

*Iqtisodiyot fanlar doktori, professor*

*Shodiyorova Sevinch Sherzod qizi*

*Jahon iqtisodiyoti va xalqaro*

*iqtisodiy munosabatlar*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorining tezkorlik bilan rivojlanish tahlil qilinadi. Xususan, AKT sohasida kuzatilayotgan tezkor o‘zgarishlar, uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni hamda xizmatlar ya‘ni eksport va import ko‘rsatkichlari yoritib berilgan. Shu bilan birga, AKT sohasida bandlik darajasining o‘sishi va uning mintaqaviy ko‘rsatkichlardan ortda qolish sabablari tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IT soha AKT xizmatlari eksporti, AKT xizmatlari importi, elektron hukumat, bandlik, raqamli transformatsiya, “ICTWeek Uzbekistan 2025”

**Аннотация:** В данной статье анализируется стремительное развитие сектора информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в Республике Узбекистан. В частности, освещаются наблюдаемые быстрые изменения в секторе ИКТ, его роль в национальной экономике и показатели сферы услуг, а именно экспорт и импорт. Одновременно анализируется рост занятости в секторе ИКТ и причины его отставания от региональных показателей.

**Ключевые слова:** Цифровая экономика, информационно-коммуникационные технологии, ИТ-сектор, экспорт услуг ИКТ, импорт услуг ИКТ, электронное правительство, занятость, цифровая трансформация,

XXI globallashuv asrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, texnologik sharoitda axborot-kommunikatsion texnologiyalari raqamli iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotganidir. Raqamli transformatsiya jarayonlari barcha davlatlar qatori O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham chuqur kirib kelib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv tizimlarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. O‘zbekistonda AKT sektori so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Shu bilan birga, ushbu sohada eksport va import ko‘rsatkichlari, bandlik darajasi hamda xalqaro reytinglardagi o‘rni kabi masalalar hali to‘liq salohiyat darajasiga yetmaganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mamlakatda raqamli transformatsiyani jadallashtirish maqsadida bir qator strategiyalar va davlat dasturlari

qabul qilingan bo‘lib, elektron hukumat tizimini rivojlantirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa AKT sohasining yanada kengayishi va iqtisodiyotdagi ulushining ortishiga xizmat qilmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda AKT sektorining rivojlanish holatini tahlil qilish uchun tahlil va sintez, taqqoslash hamda statistik usullardan foydalanildi. AKT xizmatlari eksporti, importi va bandlik ko‘rsatkichlari yillar kesimida o‘rganildi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlari tizimli yondashuv asosida baholanib, davlat strategiyalari va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha xulosalar shakllantirildi.


### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

O‘zbekistonda AKT sohasi so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirib, ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. 2023-yilda axborot-kommunikatsiya sohasi milliy iqtisodiyotga 2,1% hissa qo‘shdi. Ushbu sektorda simli va mobil aloqa hamda internet xizmatlari qo‘shilgan qiymatning asosiy qismini tashkil etib, 52,4%ga yetdi, qolgan 47,6% esa nashriyot, dasturiy ta‘minot ishlab chiqish, televidenie va radioeshittirish kabi faoliyat turlariga to‘g‘ri keldi. AKT xizmatlarining YaIMdagi ulushi 2021-yildagi 1,6% va 2022-yildagi 1,8% dan 2023-yilda 1,9% ga yetdi.(1) Elektron tijorat sektori yuqori o‘shish sur‘atlarini namoyish etib, 2017–2022-yillarda yalpi yillik o‘shish 372% ni tashkil etdi va 2022-yilda uning YaIMdagi ulushi 1,2% ga yetdi. 2024-yil holatiga ko‘ra, AKT sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 10 551 tani tashkil etdi.(2) Shu bilan birga, 2025-yil uchun ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha rasmiy statistik ma‘lumotlar hali to‘liq e‘lon qilinmagan.

So‘nggi ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, O‘zbekiston AKT xizmatlari eksporti bo‘yicha hali ham past o‘rinlarni egallamoqda. Xususan, 2023-yilgi Global innovatsiyalar indeksida mamlakat 132 davlat ichida 92-o‘rinni egallagan.(3) AKT xizmatlari eksportida telekommunikatsiya xizmatlari (194 mln AQSh dollari) yetakchi bo‘lib, undan keyin kompyuter dasturlari (157 mln dollar) va boshqa axborot xizmatlari (89 mln dollar) joylashgan.(4) IT Park rezidentlari faoliyati ijobiy o‘shishni ko‘rsatib, 2023-yilda eksport hajmi 344 mln AQSh dollarini tashkil etdi (2022-yilda 140 mln dollar). 2024-yilning uchinchi choragi holatiga ko‘ra, 2384 ta rezidentdan 936 tasi xalqaro bozorlarga xizmat ko‘rsatgan.(5) AKT xizmatlari importi bo‘yicha ham O‘zbekiston past o‘rinlarda qolmoqda — 2023-yilda 132 davlat ichida 101-o‘rinni egallagan. Dasturiy ta‘minotga ajratilgan xarajatlar YaIMning 0,2 foizini tashkil etib, bu AKTdan foydalanish darajasi nisbatan pastligini ko‘rsatadi.(6) 2024–2025-yillar uchun mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha to‘liq va yakuniy xalqaro reyting ko‘rsatkichlari hali e‘lon qilinmagan bo‘lsa-da, mavjud tendensiyalar AKT eksport salohiyati bosqichma-bosqich ortib borayotganini ko‘rsatmoqda.

1 Statistika Agentligi (2023): O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.  
 2 Statistika Agentligi (2024): Faol tashkilotlar soni “Axborot va kommunikatsiya”  
 3 WIPO (2023): Global Innovatsiya Indeksi. 4 Statistika Agenligi (2023): AKT xizmatlari exporti. 5 Infocom (2024): O‘zbekistonning AKT xizmatlari sohasidagi eksport salohiyatini o‘rganish. 6 WIPO (2023): Global Innovatsiya Indeksi  
 2023-yilda axborot-kommunikatsiya sohasida 87,8 ming kishi ish bilan ta‘minlandi. 2010-yildan 2023-yilgacha jami o‘shish sur‘ati 65,4% bo‘lib, shu davrda 69,8% o‘shish sur‘atini ko‘rsatgan.

**Axborot va kommunikatsiyalar sektori (ming)**



**1-rasm: Axborot-kommunikatsiya sohasida band bo‘lganlar sonining o‘shishi (2010-2023) (Manba: Statistika Agentligi)**

“Qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini boshqarish va ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat” sektoridan keyin AKT bandlik nuqtai nazaridan eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi.(7) IT Park Uzbekistan rezidentlarida xodimlar soni 36 300 nafarga yetib, 2023-yilga nisbatan 10 000 nafarga oshgan. Ularning 17 000 nafari eksportga yo‘naltirilgan kompaniyalarda faoliyat yuritadi.(8) 2023-yilda eng yuqori o‘rtacha ish haqi moliya va sug‘urta sektorida (taxminan 1 100 AQSH dollari), ikkinchi o‘rinda esa axborot va kommunikatsiyalar sektorida (875 AQSH dollari) qayd etilgan. Eng past o‘rtacha ish haqi esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida (taxminan 248 AQSH dollari) kuzatilgan. Umuman olganda, O‘zbekiston AKT sektori barqaror o‘shish jarayonida bo‘lib, iqtisodiyotdagi ulushi ortib bormoqda. Shu bilan birga, AKT xizmatlari eksporti, importi va dasturiy ta‘minotdan foydalanish darajasi bo‘yicha mamlakat hali jahon reytinglarida past o‘rinlarda qolmoqda, bu esa sohaning to‘liq salohiyati hali ishga solinmaganligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli transformatsiya kun tartibini ilgari surish maqsadida 2020-yilda ishlab chiqilgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga asos solgan ko‘plab strategiya va farmonlar amalga oshirildi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ikki yil ichida turli mintaqalarda va ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan 280 dan ortiq raqamli transformatsiya loyihalarini o‘z ichiga oladi. (9)

7 Statistika Agentligi (2023): Ish bilan band aholining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi. 8 Infocom (2024): O'zbekistonning AKT xizmatlari sohasidagi eksport salohiyatini o'rganish. 9 BMTTD va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar vazirligi (2022): Перспективные направления применения технологий искусственного интеллекта в Узбекистане (O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalari qo'llanishning istiqbolli yo'nalishlari.)

Shu jarayonlarning amaliy ifodasi sifatida "ICTWeek Uzbekistan 2025" haftaligi doirasida "raqamlashtirish – transformatsiya drayveri: g'oyalardan aqlli yechimlarga" forumi bo'lib o'tdi. Mazkur tadbir Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi tomonidan tashkil etilib, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion yechimlarni joriy etish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish masalalariga bag'ishlanadi.

Forumda davlat va nodavlat tashkilotlar rahbarlari, xalqaro ekspertlar, yirik korporatsiyalar va jamoatchilik vakillari ishtirok etib, raqamlashtirishning mamlakat taraqqiyotidagi o'rni, erishilgan natijalar hamda yangi avlod texnologiyalari asosida kelajakka qadam qo'yish masalalarini muhokama qilishdi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli hukumat sohasida qator ishlar amalga oshirildi:

- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar soni 780 taga yaqinlashdi.
- OneID tizimiga 765 dan ortiq axborot tizimlari ulandi, fuqarolarning vaqt sarfi 90 foizgacha kamaydi.
- Davlat xizmatlari ochiq API orqali xususiy ilovalarga integratsiya qilindi.
- Bugungi kunda 150 dan ziyod xususiy platforma orqali davlat organlari ma'lumotlaridan 130 million marotaba foydalanildi.
- "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida "Raqamli hukumat" dasturi bo'yicha joriy yilda 60 dan ortiq ustuvor loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan, ularning 30 tasi ishga tushirildi.

2030-yilga qadar barcha davlat xizmatlarini to'liq onlayn shaklga o'tkazish, 2027-yil oxiriga qadar 40 ga yaqin proaktiv va kompozit xizmatlarni joriy etish rejalashtirilgan. Forum doirasida Raqamli hukumatning yangi avlod modeli taqdim etildi. Shuningdek, Adliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent shahar hokimligi hamda "Aloqabank" vakillari raqamli transformatsiya natijalarini ma'lum qilishdi.

O'zbekiston elektron hukumat sohasida so'nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishmoqda. 2023-yil Global innovatsiyalar indeksida (GII) mamlakat "Hukumatning onlayn xizmatlari" toifasida 132 davlat ichida 57-o'rinni egallagan. Raqamli hukumatni rivojlantirishning huquqiy asoslari sifatida "Elektron hukumat to'g'risida",

“Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”, “Shaxsiy ma‘lumotlar to‘g‘risida”, “Davlat xaridlari to‘g‘risida” kabi bir qator qonunlar qabul qilingan. Elektron hukumat tizimi 2013-yilda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) ishga tushirilishi bilan boshlangan bo‘lib, u davlat xizmatlarini raqamlashtirishda muhim bosqich bo‘ldi. So‘nggi yillarda davlat xizmatlari soni izchil kengayib, yuzlab xizmatlar elektron shaklga o‘tkazildi.

### Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori va raqamli iqtisodiyot so‘nggi yillarda barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2021–2023-yillar davomida AKT xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi izchil oshib borgan bo‘lib, bu sohaning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Elektron hukumat tizimi va raqamli xizmatlarning kengayishi ham davlat boshqaruvida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashganidan dalolat beradi. 2024–2025-yillar kesimida ham AKT sohasida ijobiy o‘shish tendensiyalari davom etmoqda, xususan, xizmatlar ko‘lami kengayishi, IT kompaniyalar sonining ortishi va raqamli yechimlarning joriy etilishi kuzatilmoqda. Biroq, AKT xizmatlari eksporti, importi hamda xalqaro reytinglardagi o‘rinlar bo‘yicha O‘zbekiston hali to‘liq yuqori darajaga chiqmagan bo‘lib, bu sohada qo‘shimcha islohotlar zarurligini ko‘rsatadi.

- 2025-yilga kelib raqamli iqtisodiyot ulushini oshirish uchun AKT infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish.

- Elektron hukumat xizmatlarini to‘liq integratsiya qilish va barcha davlat xizmatlarini yagona raqamli platformaga o‘tkazish.

- AKT eksport salohiyatini oshirish uchun startaplar va IT kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi [www.stat.uz](http://www.stat.uz)— AKT sohasi va raqamli iqtisodiyot bo‘yicha statistik ma‘lumotlar.
- 2 O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy sayti — yangiliklar, strategiyalar va raqamli transformatsiya bo‘yicha materiallar. (<https://digital.uz>)
- 3 **O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.** “O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: raqamli tadbirkorlik va sun‘iy intellekt holati” — tahliliy hisobot.
- 4 **World Intellectual Property Organization (WIPO) (2023).** *Global Innovation Index 2023.*